


## 2020- yil yanvar-may oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida jami **1 392,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar–may oylariga nisbatan **98,3 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **128,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **72,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **122,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **15,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **145,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **12,4 %**) o'sishidir.

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.06.2019- yil	01.06.2020- yil	
 <b>Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)</b>			
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 121</b>	<b>1 509</b>	<b>134,6</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>386</b>	<b>416</b>	<b>107,8</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>79</b>	<b>121</b>	<b>153,2</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Karmana</b>	<b>184</b>	<b>245</b>	<b>133,2</b>
<b>Konimex</b>	<b>28</b>	<b>37</b>	<b>135,7</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>145</b>	<b>219</b>	<b>151,0</b>
<b>Navbahor</b>	<b>91</b>	<b>179</b>	<b>196,7</b>
<b>Nurota</b>	<b>63</b>	<b>98</b>	<b>155,6</b>
<b>Tomdi</b>	<b>24</b>	<b>40</b>	<b>166,7</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>41</b>	<b>57</b>	<b>139,0</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>80</b>	<b>95</b>	<b>120,0</b>





## Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.06.2020- yil holatiga ko'ra (*ulushi % da*)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,6 %), Karmana tumani (16,2 %) va Qiziltepa (14,5 %) tumanlarida qayd etildi.


Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **319,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **99,6 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019 - yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,3 %** punktga ko'payib, **22,9 %** ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **78,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **94,5 %**), Xatirchi (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **480,5 %**), ga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-may
- 2020- yil yanvar-may


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,9 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,1 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **94,7 %** ni tashkil etgan holda **764,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,2 %** ni tashkil etdiyoki **308,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **106,9 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

O'sish sur'ati % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **306,1** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **95,8** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 086,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **99,0** % ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi tutgan ulushi mos ravishda **22,0** % va **78,0** % ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1392,1</b>	<b>306,1</b>	<b>100,0</b>	<b>1 086,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>401,3</b>	<b>27,0</b>	<b>8,8</b>	<b>374,3</b>	<b>34,5</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>312,7</b>	<b>251,2</b>	<b>82,1</b>	<b>61,5</b>	<b>5,7</b>
tumanlar:					
<b>Karmana</b>	<b>124,2</b>	<b>4,2</b>	<b>1,4</b>	<b>120,0</b>	<b>11,0</b>
<b>Konimex</b>	<b>13,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>11,3</b>	<b>1,0</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>238,4</b>	<b>11,0</b>	<b>3,6</b>	<b>227,5</b>	<b>20,9</b>
<b>Navbahor</b>	<b>97,2</b>	<b>1,1</b>	<b>0,4</b>	<b>96,0</b>	<b>8,8</b>
<b>Nurota</b>	<b>76,2</b>	<b>2,3</b>	<b>0,8</b>	<b>73,9</b>	<b>6,8</b>
<b>Tomdi</b>	<b>8,1</b>	<b>2,1</b>	<b>0,7</b>	<b>8,1</b>	<b>0,7</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>22,4</b>	<b>2,5</b>	<b>0,8</b>	<b>19,9</b>	<b>1,8</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>98,2</b>	<b>4,7</b>	<b>1,5</b>	<b>93,5</b>	<b>8,6</b>





2020- yil yanvar-may

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

76,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **76,8 %** i yoki **1 068,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

89,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **287,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **89,9 %** ni tashkil etdi.

71,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **543,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,1 %** ni tashkil etdi.

77,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **237,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **77,0 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1392,1</b>	<b>98,3</b>	<b>1068,4</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>401,3</b>	<b>100,2</b>	<b>294,2</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>312,7</b>	<b>92,7</b>	<b>301,3</b>
tumanlar:			
<b>Karmana</b>	<b>124,2</b>	<b>100,5</b>	<b>91,2</b>
<b>Konimex</b>	<b>13,4</b>	<b>57,4</b>	<b>10,7</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>238,4</b>	<b>102,1</b>	<b>153,1</b>
<b>Navbahor</b>	<b>97,2</b>	<b>102,6</b>	<b>69,3</b>
<b>Nurota</b>	<b>76,2</b>	<b>100,1</b>	<b>61,1</b>
<b>Tomdi</b>	<b>8,1</b>	<b>91,2</b>	<b>7,2</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>22,4</b>	<b>100,0</b>	<b>16,5</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>98,2</b>	<b>102,3</b>	<b>63,8</b>



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi, % da

2019- yil yanvar-may

19,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

9,1



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

71,8



Binolar va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-may

12,4



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

15,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

72,1



Binolar va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **24,0 %** ni tashkil etib, 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga kamayib, **53,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga kamayib, **22,2 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,7 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **21,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,3 %** (**21,2 %** punktga ko'payish) tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **6,1 %** punktga ko'paydi va **18,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **81,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **6,1 %** punktga kamaydi.






*mlrd. so'm*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida  
qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida**


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1392,1</b>	<b>1003,0</b>	<b>216,0</b>	<b>173,1</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>401,3</b>	<b>282,0</b>	<b>50,1</b>	<b>69,2</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>312,7</b>	<b>258,3</b>	<b>19,3</b>	<b>35,1</b>
tumanlar:				
<b>Karmana</b>	<b>124,2</b>	<b>90,0</b>	<b>24,1</b>	<b>10,1</b>
<b>Konimex</b>	<b>13,4</b>	<b>5,4</b>	<b>6,4</b>	<b>1,6</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>238,4</b>	<b>149,0</b>	<b>56,9</b>	<b>32,5</b>
<b>Navbahor</b>	<b>97,2</b>	<b>80,8</b>	<b>9,3</b>	<b>7,1</b>
<b>Nurota</b>	<b>76,2</b>	<b>65,3</b>	<b>5,2</b>	<b>5,7</b>
<b>Tomdi</b>	<b>8,1</b>	<b>5,4</b>	<b>1,5</b>	<b>1,2</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>22,4</b>	<b>15,0</b>	<b>5,3</b>	<b>2,1</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>98,2</b>	<b>51,8</b>	<b>37,9</b>	<b>8,5</b>



## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da.



**Binolar va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **85,7 %** i yoki **65,3** mlrd. so'm), shuningdek, Navbahor tumani (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **83,1 %** i yoki **80,8** mlrd. so'm), Zarafshon shaharda ham (ushbu hududda joylashgan bino va inshootlari qurilishining umumiy hajmidan **82,6 %** i yoki **258,3** mlrd so'm), o'z ulushiga ega.




## Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da

Joriy yilning yanvar-may oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Konimex tumanida (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining **47,8 %** i yoki **6,4** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining **38,6 %** i yoki **37,9** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda joylashgan fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmidan **23,9 %** yoki **56,9** mlrd. so'm) da qayd etildi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Navoiy shaharida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **17,2 %** i yoki **69,2** mlrd. so'm), Tomdi tumani (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **14,8 %** i yoki **1,2** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda joylashgan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmidan **13,6 %** yoki **32,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-may oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Navoiy sh.  
401,3

2

Qiziltepa  
238,4

1

Zarafshon sh.  
312,7

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Tomdi  
8,1

2

Uchquduq  
22,4

1

Konimex  
13,4

3





**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: (79) 222-04-46  
(79) 223-54-73**